



O'zbekistonda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollari

Shukurov Furqat Razzoqovich

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: Strategiyada tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti hajmini oshirishga to'sqinlik qiluvchi omillar sifatida yerdan foydalanish huquqining yetarli darajada kafolatlanmaganligi.

Kalit so'zi: eksport qilish, qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish, chora-tadbirlari to'g'risida, Suv resurslarining bandlik va daromadlar tabiiy resurslar.

Meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va eksport qilish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribalarining tahlillari ushbu mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarning kooperatsiyasi va klasterlarini rivojlantirish zarurati borligini ko'rsatmoqda. Ma'lumki, mamlakatimizdagi mavjud tabiiy-iqlim sharoiti qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, xususan, meva-sabzavotchilikni barqaror rivojlantirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan sohani bozor munosabatlariga o'tish jarayonida meva-sabzavotchilikni rivojlantirishga ustuvor yo'nalishlar sifatida katta e'tibor qaratilmoqda. Zero, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini tashqi bozorlarda sotish hisobiga mamlakat valyuta tushumining sezilarli qismi shakllanayotganligi ham sohani tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirishning ustuvorligidan dalolat beradi. Xususan, so'nggi yillarda bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Bularga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi "O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5388 va 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030



yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853 sonli farmonlari hamda 2018-yil 17-oktyabrdagi "Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3978, 2019-yil 14-martdagi "Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4239 qarorlarini keltirish mumkin. **Iqtisodiy masalada** – meva-sabzavotchilik jami ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 32,2 foizini (*mamlakat yalpi ichki mahsulotining 8,7 foizi*) tashkil etgani holda qishloq joylarida aholining asosiy daromadlaridan biri hisoblanadi. Sanoatning qator tarmoqlarini rivojlanishiga o'zining bevosita ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu tarmoq mamlakat qishloq xo'jaligi eksportida asosiy o'rinlarni egallaydi; **ijtimoiy masalada** – meva-sabzavotchilikni barqaror rivojlantirish samaradorligi, nafaqat qishloq aholisining turmush darajasiga, balki mamlakat barcha aholisining ijtimoiy farovonligini ham oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yakuniy natijada ushbu islohotlardan pirovard maqsad mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanib, yangi O'zbekiston rivojlanishining barcha jarayonlarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ijobiy natijalarida yaqqol namoyon bo'ladi hamda aholi turmush darajasining oshib borishini o'zida aks ettiradi. Shu bilan bir qatorda "... sohada ayniqsa, meva-sabzavotchilik va uzumchilikni rivojlantirishda samarali bozor mexanizmlari tizimli yo'lga qo'yilmaganligi, ilmiy yondashuvning yetarli emasligi tarmoqning mavjud imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmasligiga olib kelmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, 1 gektar maydonda yetishtirilgan paxta xom ashyosiga nisbatan uzumdan 7 baravar, gilosdan 6 baravar, yong'oqdan 5 baravar ko'p daromad olish imkoniyati mavjud". Shuningdek, ushbu mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash hamda eksport qilishda mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilyapti, deb bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Bugungi kunda yurtimizda yetishtirilayotgan meva-sabzavotning atigi 15 foizi qayta ishlanib, 8 foizi eksport qilinmoqda, xolos. Ayniqsa, Sirdaryo, Jizzax, Xorazm, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida bu ko'rsatkichlar hamon pastligicha qolmoqda. Joriy yilda 860 ming tonna yoki 620 million dollarlik meva-sabzavot



eksport qilingani bizning imkoniyat va salohiyatimizga mosmi? Yo‘q, albatta! Rivojlangan davlatlar tajribasi asosida bog‘lar va tokzorlarga ishlov beradigan, sabzavot va kartoshka urug‘larini ekadigan va yig‘ishtirib oladigan texnikalar mavjud emas. Fermer, dehqon xo‘jaliklariga yoqilg‘i-moylash mahsulotlari, mineral o‘g‘itlar, urug‘lik yetkazib berish, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash ishlari talab darajasida tashkil etilmagan” O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi yaqin yillarda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning muhim ustuvor yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. Xususan, qator vazifalar bilan birgalikda, tarmoq boshqaruvida davlatning ishtirokini qisqartirish va bozor mexanizmlarining rolini kuchaytirish, tarmoqning investitsion jozibadorligini oshirish ko‘zda tutilgan. Strategiyada tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti hajmini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar sifatida yerdan foydalanish huquqining yetarli darajada kafolatlanmaganligi, yer maydonlarini taqsimlashning aniq mexanizmlari mavjud emasligi, ikkilamchi ijaraga berish imkoniyatlarining cheklanganligi va boshqa sabablar qayd etilgan. Shuningdek, paxta va g‘alla uchun majburiy davlat buyurtmasini bekor qilish zarurligi to‘g‘risida ham so‘z yuritilgan.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishdagi asosiy muammolar:

1. Fermer va shirkat xo‘jaliklariga qarashli qishloq xo‘jaligi yerlaridan, yer unumdorligi darajasini saqlash va oshirish nuqtai nazaridan, samarasiz foydalanilmoqda. Tuproq unumdorligi muttasil pasayib, sho‘rlanish holatlari va yerlarning degradatsiyasi yuzaga kelmoqda. Buning asosiy sabablari:

- Yerga egalik huquqi yaxshi himoyalangan — yer istalgan vaqtda olib qo‘yilishi mumkin. Shu sababli, yer egalarida yerga g‘amxo‘rlik qilish va uning unumdorligini oshirish maqsadida uzoq muddatli investitsiyalar kiritishga rag‘bat yo‘q. Yerdan qisqa muddatli foyda olish uchun intensiv foydalaniladi.



- Ekinlarni davlat buyurtmasi asosida yetishtirish bo'yicha reja ko'rsatkichlari fermerlarni yerdan intensiv foydalanishga majbur qiladi va almashlab ekish imkoniyatlarini qisqartiradi.
 - Samarali yer egalarini tanlash va yerlarni samarali mulkdorlar foydasiga qayta taqsimlashning shaffof va oqilona mexanizmlari mavjud emas. Fermerlarga tegishli yerlar bozor aylanmasidan olib qo'yilgan, undan foydalanish huquqini qayta sotish, uni garovga qo'yish mumkin emas, ikkilamchi ijaraga berish imkoniyatlari cheklangan. Yerlarni taqsimlash va qayta taqsimlash bozor tamoyillari asosida emas, balki mansabdor shaxslarning istaklariga binoan amalga oshiriladi. Yerlarni taqsimlash va qayta taqsimlash mexanizmlari shaffof emas va korrupsiyalashgan.
2. Fermer va shirkat xo'jaliklariga qarashli qishloq xo'jaligi yerlaridan, yerdan foydalanishning tijoriy rentabelligini maksimallashtirish nuqtai nazaridan, samarasiz foydalanilmoqda. Davlat buyurtmasi asosidagi qishloq xo'jaligi ekinlari uchun majburiy yer kvotalari fermerlarga tuproq xususiyatlari, iqlim, suv bilan ta'minlanganlik, kadrlar malakasi, bozor konyunkturasi, xarajatlar hajmi va qiyosiy ustunlikning boshqa omillarini hisobga olgan holda ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasini optimallashtirish uchun imkon bermaydi. Aksariyat hollarda paxta va g'alla yetishtirish uchun ajratilgan yerlarda boshqa ekinlarni yetishtirish samaraliroq bo'ladi.
3. Suv resurslarining yakuniy foydalanuvchilari, shuningdek, suv infratuzilmasiga mas'ul shaxslar va tashkilotlar tomonidan suvdan oqilona foydalanish uchun samarali rag'batlantirish vositalari mavjud emas. Natijada suv resurslarining 1/3 qismidan ortig'i sug'orish tarmoqlarida yo'qotilmoqda. Sug'oriladigan yerlarning bir necha foizigina suvni tejovchi texnologiyalar bilan ta'minlanganligi sababli undan ham ko'proq miqdordagi suv dalalarda yo'qotiladi.
4. Ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun yerdan foydalanish imkoniyatlari to'liq yuzaga chiqarilmagan:



- Me'yoridan ortiq aholi istiqomat qiluvchi agrar hududlarda ijtimoiy tanglik, bandlik va daromadlarning past darajasi hukm surgani yetmaganidek, qishloq aholisining katta qismi uchun yerdan foydalanish imkoniyati ham cheklangan.
- Hozirgi yer egalari (fermerlar) tomonidan yer olishning tamoyillari va mexanizmlari tushunarsiz, noshaffof, ularning yerga egalik qilish huquqi qishloq aholisi nazdida qonunga ziddir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bazarova, M. "EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION". *Modern Science and Research*, vol. 2, no. 10, Nov. 2023, pp. 798-04,
2. Supievnna, Bazarova Mamlakat, and Sakhibova Firuza. "STRATEGIC WAYS OF IMPLEMENTING PERSONNEL POLICY IN COMMERCIAL BANKS." *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY* 1.7 (2023): 22-25.
3. Supievnna, Bazarova Mamlakat. "USING EFFECTIVE WAYS OF CONDUCTING MARKETING RESEARCH IN INTERNATIONAL COMPANIES." *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities* 11.6 (2023): 624-629.